

ANTON CHEXOVNING "GAROV" ASARINING BADIY TALQINI

Xazratova Munira

Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Fayzullayeva O

Ilmiy rahbar :prof.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexovning "Garov" nomli asarining badiiy mazmuni, g'oya va obrazlar tizimi, insoniy qadriyatlar masalasi hamda asardagi falsafiy-axloqiy muammolar tahlil qilinadi. Maqolada yozuvchi tomonidan ilgari surilgan erkinlik, bilim va inson sha'ni haqidagi qarashlar zamonaviy adabiy-estetik yondashuvlar asosida izohlangan. Shuningdek, "Garov" asarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati bugungi jamiyat nuqtai nazaridan tahlil qilingan.*

Kalit so'lar: *badiiy mazmun, falsafiy g'oya, yumor, materializm, kontrast, psixologik tahlil, badiiy obraz, moddiy va ma'naviy dunyo.*

Chexovning garov asari badiiy obrazlar rus adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Anton Pavlovich Chexovning (1860-1904) o'z ijodi bilan nafaqat rus balki jahon adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan yozuvchilardan biridir. U insoniyat ruhiyatini, jamiytdagi ijtimoiy ziddiyatlarni, ma'naviy qadriyatlar masalasini nihoyatda teran va tabiiy tasvirlay olgan yozuvchidir.

Chexovning asarlarida murakkab falsafiy g'oyalar sodda hayotiy voqealar orqali ifodalanadi. Adibning ijodida yumor bilan bir qatorda darchchilik holatlarini ham payqash mumkin hamda yaratilgan obrazlar orasidan mukammal qiyofa deyarli topilmaydi.

Qahramonlarni kasallik, savodsizlik, telbalik, mansabparastlik, boylik kabi illatlar kemirib turadi, balki shuning uchun ham Chexov ideal odamni orzu qilib: "Kishida hamma narsa go'zal bo'lishi zarur- yuzi, so'zi, kiyimi, qalbi hatto fikri ham" - deb yozgani bejiz emas. Yozuvchi hayotning oddiy ko'rinishlarida ham chuqur falsafani ko'ra bilgan, insonni har tomonlama tahlil qilishga intilgan.

Uning "Garov" ("Папи") hikoyasi ham shunday asarlardan bo'lib, u inson insoniyat qadriyatlari, moddiy va ma'naviy dunyo o'rtasidagi ziddiyatni badiiy yoritadi. Adiib hikoyada inson umri, uning qadr-u qimmatini, diniy va dunyoviy ilmining darajasi, ayniqsa, inson ma'naviy kamoloti kabi davr uchun dolzarblik ahamiyatini yo'qotmaydigan mavzularni qalamga olgan.

Ushbu hikoya bankir va huquqshunos o'rtasidagi o'lim va qamoq jazolariga nisbatan qarama-qarshilik yuzasidan kelib chiqqan bahs "garov" xususida. Boy: "O'lim jazosi insonni darhol azobdan qutqaradi" - desa, advokat: "Umrbod qamoq insonni hayotdan, erkinlikdan mahrum etuvchi eng katta jazo" - deya javob beradi. Shundan so'ng ular o'zaro garov bog'lashadi. Advokat 15 yil davomida mutlaqo yakka holda yashashga rozi bo'ladi. Agar u bu muddatni to'liq o'tkazsa, boy unga 2 million rubl berishi berishini va'da

qiladi. Voqealar davomida advokatning hayoti tubdan o'zgaradi. U dastlab musiqani, keyin adabiyotni, falsafani, dinni o'rganadi. Kitoblar orqali butun olamni, insoniyat tarixini, san'atni o'rganadi hamda 15 yil davomida u dunyo boyliklarning o'tkinchi ekanini tushunib yetadi.

Muddat tugashiga oz qolganda, u o'z ixtiyori bilan erkinlikdan voz kechib, garovni buzadi, chunki endi unga boylik, hasad, hirs-u havas ustun bo'lgan hayot unga begonalashgan edi. U moddiy dunyodan voz kechib, o'zi uchun ma'naviy dunyoni kashf etdi. Ma'lum ma'noda, diniy va dunyoviy bilimlarni egallab yetuk shaxs qiyofasini yaratgan.

Boy obrazi - jamiyatdagi materializm va o'ziga ishonch ramzidir. U inson hayotini faqat boylik, qulaylik va lazzat orqali baholaydi, biroq asar oxirida u ham o'z g'alabasidan lazzat ola olmaydi. U advokatning ruhiy yuksalishi oldida o'zining ma'naviy qashshoqligini sezadi. Advokat obrazi esa aql, sabr-toqat va ma'naviy o'sish timsoli sifatida gavdalanadi. U dastlab garov orqali o'zini isbotlamochi bo'ladi, ammo vaqt o'tishi bilan hayotning haqiqiy ma'nosini anglaydi. U kitoblar orqali dunyoni tanib, ruhiy jihatdan yuksaladi. Uning boylikdan voz kechishi insonning eng katta g'alabasi - nafs ustidan g'alaba ramzidir. Asarda bir qancha badiiy vositalardan foydalanilgan. Chexov hikoyada ramz, kontrast va psixologik tahlildan mohirona foydalangan. "Garov" ning o'z ramziy ma'noga ega, ya'ni u insonning moddiy va ma'naviy dunyosi o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Hikoyadagi qarama-qarshi obrazlar- boy va advokat inson ruhiyatidagi ikki kuch : nafsoniy istaki va ruhiy uyg'onish o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Chexov uslubiga xos xususiyat qisqa, ammo tiran ma'noli tasvir shu bilan birgalikda u dialoglar orqali chuqur falsafani ochib beradi.

Inson umri davomida egallagan jamiki aql zakovat ilm-ma'rifat yoki minglab kitoblarni o'qish bilan odam bo'lmasligi, o'qigan narsani uqish lozimligini ta'kidlanadi. Ma'rifatga olib boruvchi qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan bosishi, bu yo'lda hormay-tolmasligi uchun zarur maslahatlar keltirib o'tilgan.

Dunyoni anglash yo'lida ma'rifat hosil qilish yo'l- yo'rig'i ko'rsatilgan. Hikoya qahramoni shunchaki o'qib dunyoni anglamadi, aksincha, hayotni uqib teran xulosalarga tayanib ma'lum bosqichga yetib keldi. Chexovning falsafasi shundan iboratki, hayotning haqiqiy qiymatini insonning ichki dunyosi belgilaydi. Bu fikr bugungi kundagi ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Anton Chexovning "Garov" hikoyasi insoniyat qadri, ozodlik va ma'naviyat haqidagi chuqur falsafiy asardir. Yozuvchi oddiy bir bahs orqali insonning ruhiy o'sishi, uni kamolotga yetishi va moddiy boylikdan ustun bo'lgan ma'naviy qadriyatni ochib beradi. Asarda ilgari surilgan konsepsiyalar millat ma'naviyati, insonlar dunyoqarashi va shakllanishi uchun muhim turtki bo'ladi desak, yanglishmaymiz.

Shuning uchun ham "Garov" hikoyasi nafaqat Chexovning ijodining, balki butun jahon adabiyotining eng ibratli asarlaridan biri hisoblanadi. U o'quvchini o'zini anglash, ma'naviyatni qadrlash va insoniylikni asrashga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÓYXATI:

- 1) Chexov A. P. Tanlangan asarlar. - Moskva: Prosveshcheniye, 1986
- 2) Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. B. To'xliyev va b. T. : "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" nashriyoti. 2018
- 3) Qodirova. N. Rus realizimi va Anton Chexov ijodi. T. : 2021
- 4) Internet manbalari : www.litmer.ru, www.goodreads.com , <https://saviya.uz>